

MUHAMMAD YUSUF DOSTONLARIDA INVERSIYA VA ANTITEZANING QO'LLANILISHI

Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna
"Folklor va etnografiya" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Muhammad Yusuf dostonlaridagi sintaktik vositalardan inversiya va antitezaning qo'llanilishi, asar harakterini, mazmun-mohiyatini ochib berishida muhim ahamiyat kasb etganligi haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar:, inversiya, antiteza, lingvistik aspekt, tasviriy vositalar, leksik, morfologik, sintaktik, doston.

ИНВЕРСИЯ И АНТИТЕЗА В ДАСТАНАХ МУХАММАДА ЮСУФА

Джамалходжаева Гулхумор Тахировна
Преподаватель кафедры «Фольклор и этнография».

Аннотация: В данной статье изложено, что использование инверсии и антитезы из синтаксических средств в дастанах Мухаммада Юсуфа сыграло важную роль в раскрытии характера, содержания и сущности произведения.

Ключевые слова: инверсия, антитеза, лингвистический аспект, изобразительные средства, лексический, морфологический, синтаксический, эпос.

INVERSION AND ANTITHEIS IN THE DASTANS OF MUHAMMAD YUSUF

Djamalkhodjayeva Gulkhumor Takhirovna
Teacher of the "Folklore va ethnography" department

Abstract: In this article, it is stated that the use of inversion and antithesis from syntactic means in the poems of Muhammad Yusuf played an important role in revealing the character, content and essence of the work.

Keywords: inversion, antithesis, linguistic aspect, pictorial means, lexical, morphological, syntactic, epic.

O'zbek tilshunosligida sintaktik vositalar fikrni aniq ifoda etishda va badiiy asarlarda estetik effekt yaratishda muhimdir. "Sintaktik vositalar badiiy matnda integrativ munosabatlarning yuzaga kelishida faol ishtirok etishi barobarida ayni munosabatlar fonida xilma-xil badiiy ma'no-mazmunlarni ham ifodalay oladi"[1.221].

Ko‘rinadiki, sintaktik vositalar matning umumiy mazmunini boyitishda va badiiy asarlarni yanada samarali qilishda xizmat qiladi. Manbalarda ekspressivlik ifodalanish shakllari gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog‘lovchilarning maxsus qo‘llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so‘roq kabi uslubiy figuralar fikrning o‘ta ta’sirchan ifodalanishini ta’minlashda muhim sanaladi[2.58]. Stilistikaga oid bir qancha adabiyotlarda sintaktik figuralarga tasviriylkning turli usullari kiritiladi. Mahoratli ijodkorlar badiiy nutqda obrazlilik, tasviriylk, emotsionallik va ekspressivlikni vujudga keltirish uchun turli xil sintaktik usullardan keng foydalanadilar.

Ta’kidlash joizki, badiiy nutqning asosiy xususiyatlaridan biri ekspressivlikdir, u badiiy tasviriyl vositalar orqali yanada yorqin va go‘zal ko‘rinishda ifodalanadi. Tasviriyl vositalar faqat aytilgan fikr bilan cheklanmay, balki so‘z san’atining iste’dodli vakili tomonidan yanada boyitilib boriladi. Muhammad Yusuf dostonlarida qo‘llaniladigan badiiy tasvir vositalarning lingvistik aspektida tadqiq etilishi lingvopoetika sohasi doirasiga kiradi. Lingvopoetika badiiy nutqning estetik mohiyatini belgilab beruvchi ifodasidir. Badiiy nutq o‘z o‘rnida tasviriyl vositalar bilan mukammal va to‘kisdir. Har qanday badiiy asarning “badiiylk belgisi o‘xshatish, sifatlash,... kabi tasviriyl vositalar orqali ifodalanadi” [3.5]. Ushbu bo‘limda mazkur vositalarning Muhammad Yusuf dostonlaridagi in’ikosi xususida fikr yuritiladi.

Ba’zan gap bo‘laklari matnda odatdagidan boshqacharoq tartibda o‘rin oladi, ya’ni gap bo‘laklarining muayyan bir maqsad bilan o‘zgarishi inversiya hodisasi deyiladi [1.224]. Badiiy matnda qahramonlar nutqni jonli nutqqa yaqinlashtirish maqsadida, ularning tilini individuallashtirishda mazkur usul qo‘llaniladi. Shoir o‘zida katta mazmunni mujassamlashtirgan so‘zlarni gapda o‘zgacha tartibda joylashtirish yo‘li bilan kitobxonni unga diqqatini ko‘proq qaratishiga undaydi: – *Bilasanmi, Nilu – (Nilufar) erga tegayotganmish.*

Inversiya usulida Muhammad Yusuf deyarli dostonlarining har bir misrasida, har bir she’riyl parchasida unumli qo‘llagan. Asosan inversiyani ohangdorlikni kuchaytirish, she’rning ta’sirchanlikni, shu bilan birga ifodalilikni yanada oshirish maqsadida foydalaniladi. Adib ham bundan mustasno bo‘lmagan holda inversiyani quyidagi misralarda qo‘llaganini kuzatamiz:

O‘ltirar kelishganek bog‘chasiga,

Qo‘lchalarini qo‘yib oyoqchasiga.

Mo‘ltirar tergovchi tayoqchasiga –

Ikki yashar “xalq dushmanlari”. (“Qora quyosh”)

Yuqorida keltirilgan namunada inversiya hodisasining yuz berish natijasida, misralardagi *bog‘chasiga, oyoqchasiga, tayoqchasiga* leksemalarga urg‘uli pozitsiyaga o‘tadi, ayni shu so‘zlarga ma’no urg‘usining tushishi muallif badiiy niyatiga, asar mazmuniga va emotsional tonalligiga muvofiq keladi. Yana shuni aytish joizki, *bog‘chasiga, oyoqchasiga, tayoqchasiga* leksemalari qofiyalanadi.

“Nutq birliklarining ketma-ket qo‘llanishi asosida birining ikkinchisi ma’nosini kuchaytirib borishidan iborat poetik hodisa, ya’ni gradatsiya badiiy matnda tez-tez uchraydi. Badiiy adabiyotda holatlarni, tuyg‘u va kechinmalarni qiyoslashda, his-hayajonlar junbushini to‘liq ifodalashda gradatsiya usulidan foydalaniladi”[1.232].

Muhammad Yusuf dostonlarida gradatsiya hodisasi ham kuzatiladi. Bunday hodisani quyidagi parchada kuchaytirilgan takror holarida kuzatamiz:

*Bedarak yo ‘qoldi qancha odam, essiz,
So ‘roqlarda o ‘ldi qancha odam, essiz,
Qiynoqlarda o ‘ldi qancha odam, essiz,
Sirtmoqlarda qoldi qancha odam, essiz... (“Qora quyosh”)[*

Yuqoridagi dostondagi parcha gradatsiyaning ifoda usuliga ko‘ra miqdoriy, emotsional va mantiqiy turiga misol bo‘la oladi. Satrlarda takror usuli bilan gradatsiya usuli parallel qo‘llanilgan bo‘lib, bu yerda o‘sha qatag‘onga uchraganlarning holatiga achinish, qayg‘urish ma‘nosida ifodalanadi.

Antiteza she‘riyatda ifodalilik va ta‘sirchanlikni oshirishda muhim vositalardan sanaladi. “Antiteza mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo‘yish, zidlash hodisasi tarzida tushuniladi. Voqea-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun asosan, badiiy nutqda zid ma‘noli qo‘shimchalar, zidlovchi bog‘lovchilar, so‘z va iboralardan foydalaniladi. Sintaktik zidlash asosan bog‘langan va bog‘lovchisiz qo‘shma gap shakllarida kuzatiladi. Badiiy matnni lisoniy jihatdan tahlil qilishda zidlantirishdan yozuvchining ko‘zga tutgan maqsadi nima ekanligini aniqlash talab qilinadi. Yozuvchining mahorati zidlantirilayotgan voqeliklar uchun tanlangan ifoda materialida yanada aniq ko‘rinadi”[1.224].

Muhammad Yusuf o‘z dostonlarida antitezadan unumli foydalanganligini ushbu misrlarda kuzatamiz:

*U xalqlar qotili,
Xalqlar otasi,
Tilim tebranmaydi
Yomon deyishga
U shunday ulug‘ki,
Yo ‘qdir qiyosi
Qancha ulug‘ bo‘lsa
Tubandir shuncha.(“Qora quyosh”)*

Yuqoridagi satrlardagi “*xalqlar qotili*” so‘z komponenti “*xalqlar otasi*” so‘z birikmasi bilan zidlantirilib ifodalangan. Ushbu *qotil* so‘zi aslida *ota* so‘ziga zid kelmasligini juda yaxshi bilamiz. Ammo *qotil* leksemasi “jon oluvchi” ma‘nosida kelgan bo‘lsa, *ota* komponenti “jon beruvchi” ma‘nolarini anglatib kelgan. Demak, antitezaga bimalol misol bo‘la oladi. Ko‘rinadiki, parchadagi misralarning deyarli barchasi antitezaga misol bo‘la oladi: “*qancha ulug‘ bo‘lsa*” misrasiga “*tubandir shuncha*” misrasi zidlanib kelingan. Muhammad Yusuf bu so‘z komponentlarni shunday qo‘llaydiki, o‘sha mudhish fojiali, qonli davrni har bir kitobxonning tassavvuriga keltirishiga muvaffaq bo‘ladi. Keyingi misrlardagi so‘z birikmalarida ham xuddi shu vazifani bajarib, antiteza usulini qo‘llash orqali kuchli ifodalar yaratiladi:

*O‘ylayman,
Zaminda eng baxtiyor zot –
Yoki akademik,
Yoki besavod.* (“Qora quyosh”)

Dostondagi ushbu keltirilgan namunada *akademik* komponenti hamda *besavod* komponenti zidlantirilib kelingan. Aynan *akademik* komponenti *besavod* komponentiga nisbatan “o‘qimishli” yoki “ilimli” so‘zlari tanlanmasdan *akademik* leksemasi tanlanishi shoirning mahoratidan darak beradi. Antitezalar nafaqat zidlanib kelgan, balki matnni shakllantirishda qofiyadoshlik vazifasini ham bajarib kelgan.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, Muhammad Yusuf qahramon ruhiyatidagi kontrastlik hamda his-tuyg‘ularni bo‘rttirib tasvirlashda antitezadan mahorat bilan foydalana olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ёўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: О‘zbekiston, 2019. – Б. 221.
2. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 58.
3. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент, 1976. – В.5.
4. Muhammad Yusuf. Xalq bo‘l elim – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 169 b.